



## Integratsiyalashgan Ta'lim Texnologiyalari

Nigora Alisherovna Umarova

Angren Universiteti

"Ijtimoiy -gumanitar fanlar" kafedrası katta ukituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari haqida gap borgan.

**Kalit so'zlar:** Fan ta'limi sifatini oshirish, fanlaridagi integratsiya; integratsiyalashgan darsning maqsadlari, integratsiya darajalari.

Ta'limda integratsiyalashgan intellektual faoliyatni tashkil etishga tayyorlashni takomillashtirishga oid yangilangan, ya'ni intellektual-lashtirilgan ta'lim mazmuni Hozirda bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamiyat taraqqiyotini intellektuallashtirish jarayoni muhim omil bo'lmoqda va tabiiyki, bunday omilni ta'minlash bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatni tashkil etishga tayyorlash negizida amalga oshiriladi. Shuning bilan birga qayd etish mumkinki, intellektual faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalariga ega bo'lgan o'qituvchi innovatsion jarayonlarga oson kirib boradi va uning o'zi ham innovatsion rivojlangan bo'ladi. Bu masala davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan, ya'ni 2017 yil 29 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF – 2564 - son farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish vazirligi" tashkil etildi va mazkur vazirlik qoshida "Innovatsion rivojlanish ilmiy-texnik markazi" ham shakllantirildi. Bunday davlat hujjatlarining qabul qilinishi bejiz emas albatta, keyingi paytlarda innovatsion rivojlangan mutaxassis kabi terminlar iste'molga kirib kelmoqda. Bunga sabab jamiyatni axborotlashtirish va intellektuallashtirish kabi intellektual salohiyat hamda unga mos intellektual faoliyatlar jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Bularga e'tiboran hozirda dunyo bo'yicha olimlar va yetakchi mutaxassislar bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatni tashkil qila oladigan qilib shakllantirishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Ular ichida bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatni tashkil etishga tayyorlash ishlari o'ta dolzarb deb hisoblanmoqda. Bunga sabab bo'lajak o'qituvchilar barcha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda u yoki bu shaklda ishtirokchi bo'ladi.

Bola tug'ilgandan boshlab, olamni eng sodda tasavvurlar asosida o'zlashtiradi. His qilish, tasavvur, tushunish, anglab yetish, mohiyatga intilish va unga yetib borib, muayyan xulosaga kelish – tushunchaning shakllanish bosqichlariga ta'lim-tarbiya orqali ta'sir ko'rsatiladi. Bu ta'sir dastlab bolaning fikrlash jarayoniga qaratiladi. Shu bois, bugungi ta'lim falsafasida ta'lim maqsadi bilan mazmunini uzviylashtirish inson va jamiyat, inson va tabiatni yaxlit, uzviy, o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida o'rganish va anglash imkonini beradi, deb talqin etilayotir. Tabiiy, ilmiy va gumanitar bilimlarni —tabiat – insonl tizimida uzviylashtirish esa muayyan didaktik tamoyillar ustuvorligini talab qiladi. Bu tamoyillar integratsiyalashgan texnologiya mazmunida aks etadi.

Qator olimlar tomonidan integratsiyaning pedagogikadagi metodologik asoslari aniqlangan: bolaning rivojlanish faoliyatidagi muhim bosqichlarning didaktik, psixologik va falsafiy



talqinlari; pedagogik jarayonga uzviylik va yaxlitlik tamoyillari asosidagi yondashuv; ta'lim va tarbiya jarayonining inson ruxiyati bilan aloqadorligi haqidagi psixologik qarashlar. Davletshin, B.Qodirov, B.Umarov, Z.Rasulova, P.Ergashev kabi psixologlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lsa, ta'limda integratsiya muammosi va didaktik tamoyillari R.Safarova, E.Turdiqulova, R.Mavlanova kabi olimlar tomonidan aniqlashtirilgan. Ular quyidagi tushunchalarni alohida ajratib ko'rsatganlar: integratsiya jarayoni, integratsiyalash tamoyillari, integrativ jarayon va integrativ yondashuv.

Integratsiyalash tamoyillari o'quv jarayonidagi barcha o'quv komponentlarini, o'quv-biluv jarayoni tizimining barcha qismlarini, tizimlararo o'zaro aloqadorlikni o'z ichiga oladi. Integratsiyalash tamoyili o'quv jarayonining maqsadini belgilab olishda, mazmunini, uning shakl va metodlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi.[4]. Integratsion yondashuv tamoyili pedagogik jarayonning barcha komponentlariga taalluqli bo'lib, pedagogik jarayonning bir butun, yaxlit va tizimligini ifodalaydi.

***Ta'lim sohasidagi integratsiyalashgan jarayonini uch tarixiy davrga ajratish mumkin:***

	<b>Bosqichlari</b>	<b>Yillari</b>	<b>Omillari</b>
1	1-bosqich (1 davr)	1920-1940 yy	Ta'lim va tarbiyaning o'zaro integratsiyalashuvi
2	2-bosqich (2 davr)	1950-1970 yy	Fanlararo aloqadorlik
3	3-bosqich(3 davr)	1980 yildan boshlanadi	Fundamentallik

Ta'lim jarayonini integratsiyalashning birinchi davri mehnat maktabi bilan bog'liq (1920-1940). Mehnat maktabining integratsiyalashuvi taniqli amerikalik faylasuf va pedagog olim Djon Dyui tomonidan ishlab chiqilgan. Bu bosqichda integratsiyalashgan ta'limning asosiy omili ta'lim va tarbiyaning integratsiyalashuvi mehnat faoliyati orqali amalga oshirilishi haqidagi g'oyaga asoslangan holda ish olib borilgan.

Integratsiyalashgan ta'lim rivojlanishining ikkinchi bosqichi predmetlararo aloqadorlik bilan xarakterlanadi (1950-1970). Bu bosqichda integratsiyalashgan texnologiya o'quv fanlarining o'zaro bir biri bilan mazmunli va ketma-ketli didaktik aloqadorlikda bog'lanishi orqali shakllandi va rivojlandi.

Integratsiyalashgan ta'limning uchinchi bosqichini fundamental bosqich deb atash mumkin. U 1980 yillardan boshlandi. Demak, integratsiyalashgan ta'limni joriy etishdan maqsad ta'lim va tarbiya birligini ta'minlash bo'lgan, qolgan masalalarga keyinroq e'tibor qaratilgan [1]. Bunday yondashuv: tabiat-inson tizimida o'quvchilarga fundamental bilimlar berishga asoslangan; ma'naviy va ekologik tushunchalarni chuqur singdirishga harakat qilingan; faqatgina tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish inson kelajagi xavfsizligini ta'minlashini tushuntirilishi asosiy g'oya qilib olingan.

Bunday yondashuvning ilg'or g'oyalariga birdamlik, maqsadga yo'naltirilganlik, inson va tabiat uzviyligi, inson-tabiat tizimining samoviy belgilanganligini anglash kiritilgan. 80-yillardan boshlab, quyidagi tamoyillar ustuvorlik qilgan:



Tamoyillar – insonparvarlashtirish, u tabiiy-ilmiy va gumanitar bilimlarni «tabiat - inson» tizimida integrallash, tabiatdagi mavjud aloqalarni o‘quvchilar anglashi orqali shaxsning shakllanishi, tabiat haqidagi aniq bilimlarga tegishli o‘quvchilar fikrlash yo‘nalishi usuli shakllanish ustivorligi, kelgusi didaktik moslashuv ilmiy izlanishga mos kelgan turli sohalardan materialni tanlashdir

Bola shaxsini rivojlantirish va o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirilgan olam haqidagi yaxlit tushunchalarni shakllantirish; insonparvarlashtirish; tabiiy-ilmiy va gumanitar bilimlarni —tabiat-insonl tizimida integrallashuvi; atrof-olamni yaxlit, mujassam bilimlarga tayanib idrok etish, tabiatdagi mavjud aloqalarni o‘quvchilar anglashi orqali shaxsning shakllantirish; tabiat haqidagi mavjud bilimlarga tayanib, o‘quvchilarni fikrlashga undash; kelgusi didaktik moslashuv ilmiy izlanishga mos kelgan turli sohalardan material, ma’lumotlarni tanlash va qo‘llash

O‘quvchilarga tizimli bilim berish esa quyidagi tamoyillar mustaqillik yillarida ustuvorlik qilmoqda: integratsiyaning differensiya bilan uzviylik tamoyili; o‘qituvchining o‘quvchi shaxsiga insonparvarlik munosabati; ta’lim-tarbiya jarayonining aniq maqsadga yo‘naltirilganligi; integratsiyalashgan ta’limning o‘quvchi shaxsiga qaratilganligi va uning yosh xususiyatlari e’tiborga olinishi; o‘quvchilarni faollashtirishga va komil insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi; integratsiyalashgan ta’lim-tarbiya jarayoni hamkorlik pedagogikasiga asoslanishi; integratsiyalashgan yondashuv pedagogik hamkorlikka tayanishi va o‘quvchilarni faollashtirishga yo‘naltirilganligi; integrativ muammoli darslarda muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish; o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish; o‘quvchilarni ijodkorlikka yo‘llash.

Jamiyatning ijtimoiy-madaniy ravnaqida ta’lim sohasidagi integratsiyalashish jarayonlarining ta’siri shubhasiz. Ta’lim tizimining barqarorlashuvi va takomillashuvida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalariga yo‘naltirilgan g‘oyalar metodologik ahamiyat kasb etadi. Xususan, boshlang‘ich ta’limdagi integratsiyalashgan texnologiyalar mohiyatini o‘quvchilarga tizimli bilim berish jarayoni tashkil etadi. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari atrof-olamni yaxlit, mujassam bilimlarga tayanib idrok etishga o‘rganadilar. Integratsiyalashgan ta’limda o‘quvchilar yosh xususiyatlari e’tiborga olinishi lozim. O‘quvchilar o‘zlari qurshab turgan olamni izzat va o‘zaro uzviy bog‘lanishda tasavvur qilib idrok etadilar. Atrofimizdagi olam, o‘qish darsi rang-baranglikda idrok etiladi: badiiy tasvirlash orqali, ohanglar vositasida (musiq), rang tasvir (tasviriy san’at), tabiat manzara ko‘rinishlari (—Atrofimizdagi olam) orqali tasavvur qilib anglaydilar. Mazkur o‘quv predmetlaridan egallangan bilimlarni tizimlashtirishga o‘zaro mujassamlashtirishga imkoniyat yaratiladi

Integratsiyalashgan darslar bolalar dunyoqarashida tushuncha, tasavvur va bilimlar, voqealar uzviylikni tushunish, anglab yetishga o‘rgatadi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, maktablardagi boshlang‘ich sinflarda o‘quv predmetlari integratsiyalashuvi ilmiy jihatdan turli fikrlar va qarashlar, bir-biriga zid va uzviy bo‘lmaganligi sababli integratsiya muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Bu muammoni xal etishda integratsiyalash tamoyillariga amal qilishni tavsiya qilamiz

Integratsiyaning differentsiatsiya bilan uzviy bog‘liqlik tamoyili. O‘qitish jarayonida integratsiyani qo‘llash nazariyasi taraqqiyoti ilmiy pedagogik tushunchalar rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Integratsiya differensiya bilan uzviy bog‘liqdir. Bu uzviylik o‘quvchilarda



olayotgan bilimlarini anglashga bo'lgan intilishlari tuzilmasini barpo qilishlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Integratsiya jarayonini boshlang'ich ta'limda joriy etish turli murakkabliklarga ega. Chunki integratsiyalash yuqori sinflarda ancha qulay kechadi. Lekin boshlang'ich sinflarda qo'llashning o'ziga xos murakkabliklari mavjud. Ayniqsa, boshlang'ich maktabda fanlararo integratsiyaning psixologik asoslari muhim o'rin tutadi.

O'quv materialini eslab qolish qobiliyatining muhim xususiyatlaridan biri o'quvchiga psixologik ta'sir ko'rsatish hisoblanadi va o'quvchi uchun o'zlashtirilgin tushunchlarning tayanch nuqtalarini ajratib, asosiy bilimlar avval o'zlashtirilgan tushunchalariga bog'lab o'zlashtiriladi. Bundan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: —O'quv predmetiga oid bilimlarni o'rganish usullarini egallash ikkinchi fanni o'zlashtirganda o'quvchining analitik – sintetik faoliyatini asosiy maqsadga yo'naltirilgan masalalar yechimini topishga qaratiladi va nihoyat umumiy hamda alohida turgan masalalarni uzviy, o'zaro bog'liq nuqtalardan yechishga yo'naltirilgan. Shuning uchun har bir o'qituvchining faol ishi fanlararo aloqalarni kuchaytirish, kengaytirish va chuqurlashtirishdan, o'quvchilarni o'qitish va tarbiya qilishni uyg'unlashtirishning asosiy va yordamchi yechimini topishga qaratilish lozim. Hozirgi ta'lim amaliyotida fanlararo integratsiya masalasiga kam e'tibor qaratilganligini hisobga olib, shuni aytish mumkinki, integratsiya bu fanlar uyg'unligini ko'rsatuvchi yuqori bosqichdir. Bu yo'nalishda pedagoglar, psixologlar va metodistlar o'zaro hamkorlikda ishlashlarizarur. Shundagina biz fanlararo bog'liqlikning psixologik asoslariga tayangan holda integratsiyaning boshlang'ich sinflarda o'zlashtirishning faollashtirish vositasiga aylantira olamiz.

Mamlakatimiz ta'limi jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, mashg'ulotlarning rang-barang, qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan birga o'quv materialining chuqur o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratildi. Sir emaski, maktablarimizda an'anaviy o'qitish usulidan ham foydalaniladi. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'limning imkoniyatlari cheklanganligini, muhim ta'limiy muammolar o'z yechimini topmayotganligi, qator pedagogik tajribalar orqali amaliy isbotini topdi. Bu bilan rivojlangan davlatlar ta'limi erishgan yutuqlardan foydalanilmoqda. Yoshlarni chet davlatlarda ta'lim olishga qo'llash bilan bir qatorda o'qituvchilar ham ilg'or tajribani o'rganishga jalb etilmoqda. Darhaqiqat, yosh avlodni bilimli, ma'rifatli shaxs sifatida kamol toptirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Ta'lim jarayonida egallangan bilim ko'nikma va malakalar jahon ta'limi andozalari talablariga javob berishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Yoshlarni Vatan va milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ta'lim va tarbiya sohasida samaradorlikni kafolatlovchi texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylandi.

Boshlang'ich sinf darslarini integratsiyalash ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishdagi o'qituvchi oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- ✓ ta'lim maqsadini aniqlashtirish;
- ✓ ta'lim vazifasini aniqlashtirish;
- ✓ ta'lim berish predmetini ishlab chiqish;
- ✓ ta'lim mazmuniga va maqsadiga mos metodlarni tanlash;
- ✓ ta'lim oluvchining intellektual salohiyatiga, yoshiga mos o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish;




- ✓ dars loyihasini yaratish;
- ✓ ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va vositalari (o'quv qo'llanmalar, ta'limning texnologik vositalari-axborot texnikalari)ni oldindan tanlash va tayyorlash;
- ✓ ta'lim berish natijasi va uning samaradorligini aniqlash mezonlarini va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash mezonlariga mos ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash sifatini xolisona baholash uchun test vazifalarini tayyorlash.

Integratsiyalashgan ta'limni o'quvchi shaxsiga qaratilganlik tamoyili. Taim maqsadlarini amalga oshirishda, ayniqsa, unga ijodiy yondashishda ta'limiy, tarbiyaviy axborotli rivojlantiruvchi maqsadlar uyg'unligini taminlashga imkon yaratadi. Har bir o'qituvchi dars mashg'ulotlarini olib borishda o'z faoliyatini tahlil qila bilish va shu asosda tegishli xulosa chiqara olishi kerak. Agarda o'qituvchi mashg'ulotlarning samaradorligini baholay olmasa, yo'l qo'ygan kamchiliklarini bartaraf yetishga intilmaydi, natijada uning faoliyatida ijodiy yondashuv amalga oshmaydi. Integratsion texnologiyaga asoslangan dars tashkil yetish o'qituvchining, ijodiy faoliyat sari qadam qo'yganligini ifoda etadi. Shu bilan birga kafolatlangan ta'lim sifatiga erishish uchun integratsiyalashgan texnologiyalar orqali quyidagi vazifalarni bajarish majburiyati turadi:



O'qituvchining dars jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarni qo'llashdagi ta'lim samaradorligini aniqlash ta'limni to'g'ri olib borayotganligini baholashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.



Darhaqiqat, integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o'quvchining vaqti, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo'riqlashlarning oldi olinadi, ta'lim samaradorligi oshadi. O'quvchilar zarur ko'nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o'quv predmetlari mazmunini uyg'unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Vazifaga doir integratsiya dars jarayonida talabalar turli hil mashq va vazifalarni integrativ tarzda bajarishlari ko'zda tutiladi. Unda vazifalar ketma-ket beriladi, shuningdek pedagogik va innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa talabalarda ta'lim olishni jadallashtiradi va darsga bo'lgan motivatsiyani ham rivojlantiradi. Talabalarda yakka, juft va guruh bo'lib ishlash hamda fikr almashish bilan bir qatorda bir-birlariga ko'maklashish imkonini ham yaratadi.

### References:

1. "O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etish". PF – 2564. 29 noyabr. 2017 y.
2. Avazboev A.I. O'quv predmetlari mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish. Diss. ped.fanlar.nomzodi. -T.: 2001.
3. Isakulova N.J. Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishning nazariyasi va amaliyoti. Diss ped.fanlar doktori. –T.: 2012, 288-b.
4. Toshov M.J. Pedagogika kollejlari ta'limi jarayonida pedagogik integratsiyaning mazmuni va tuzilmasini taminlash. Avtoref. diss. ped. fan.nom. -T.: 2012, 168-b.